



ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA MUXAMMASLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI.

Fayziyeva Gulshan Hayitovna

BuxDU, o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada istiqlol davri adabiyoti muxammaslarining xususiyatlari, o'ziga xosligi mustaqil va tazmin muxammaslar, istiqlol davrida muxammas janrida samarali ijod qilgan ijodkorlar va ularning ijodiy na'munalari tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tazmin muxammaslar, tab'i xud, qofiya, ijtimoiy tuzum, obraz.*

Muxammas 20-asrda keng rivojlangan janrlardan biri. Bu davrda Navoiy g'azallariga muxammas bitish keng yoyilgan.

Aslini olib qarajak muxammas "beshlik" degan ma'noni bildiradi. Bu beshliklar besh misradan iborat bo'lishi kerak. Muxammas oxirida shoir taxallusini keltirish esa ixtiyoriydir. Bu janr ikki turga bo'linadi: taxmis va mustaqil muxammaslar.

Muxammas janriga oid ilk namunalar Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi. Navoiy davrida tazmin muxammaslar yaratilgan.

Istiqlol davrida bu janrning rivoji sezilarli ko'zga tashlandi. Xususan Abdulla Oripov, Omon Muxtor, Omon Matjon, Muhammad Ali, Usmon Azim, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Zikrilla Ne'mat, Xosiyat Bobomurodava, Farid Usmon, Shafolat Termiziy, Hazrat Zulfiqor kabi ko'plab ijodkorlar samarali qalam tebratishgan. Ayniqsa, 90-yillarda Erkin Vohidov tazmin muxammaslari bilan bu janrning rivojiga hissa qo'shdi. Erkin Vohidov Navoiy, Bobur, Fuzuliy, qozoq shoiri Jumakent Najmiddinov g'azallariga tazmin muxammaslar bog'ladi.

Ko'z ochar gulshanda g'uncha, bulbul afg'on aylagach,
Nega afg'on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,
Misli oykim, ko'rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Ushbu muxammas Erkin Vohidov qalamiga mansub bo'lib, Navoiy g'azaliga tazmin bitilgan. Muxammas 5 misradan iborat, aruz vaznida, a-a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Shoir an'analarga sodiq qolgan holda bandning oxirida o'z taxallusini keltirib o'tadi.

Nolay afg'oning, Erkin, dilbaringga yetmadi,
Yetsa ham yo bemehr yo zarra parvo etmadi,
Bitti ko'p zahming va lekin ishq zahmi bitmadi,
Ey Navoiy, ishq agar ko'nglingni majruh etmadi,
Bas, nedinkim qon kelur og'zingdan, afg'on aylagach.





Oxirgi bandlarda shoir Navoiy taxallusi bilan birgalikda o'z ismini ham keltirib o'tgan. Bu misralarda ko'rishimiz mumkinki, Erkin Vohidov Navoiy g'azaliga ergashgan holda go'zal bir taxmis boylagan.

Mustaqillikdan so'ng tazmin bog'lash keng tarqaldi .Ayniqsa Navoiy, Bobur ijodiga katta nazar tashlandi. Jamol Kamol ham buyuk bobolar ijodiga nazar tashlagan holda tazmin muxammaslar yaratdi.

Jamol Kamolning "Asr bilan Vidolashuv" to'plamida va "Bosh ustina , bosh ustina she'rlar to'plamida mukammal yaratilgan tazminlar o'rin olgan.

Ey musulmonlar, diyonati Xudodin istangiz,
Yaxshilikni yaxshidin, xayri duodin istangiz,
Benavolik boisin makru riyodin istangiz,
Istaganlar bizni sahroyi balodin istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanodin istangiz.

Ushbu misralar Jamol Kamolning "Bosh ustina,bosh ustina " she'rlar to'plamidan olingan bo'lib, aruz vaznida yozilgan Navoiy g'azaliga taxmis shaklda yaratilgan muxammasidir. Ushbu misralar shaklan va mazmunan Navoiy g'azaliga hamohangligi bilan ajralib turadi. Navoiy g'azali va taxmisning vazni ham bir xil. Ijodkor tomanidan tanlangan qofiyalar ham taxmisning mukammalligini vujudga keltirgan.

Buni yanada yaqolloq ko'rish uchun taxmisning asl variantini ko'rib chiqamiz:

Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.
Vomuqu, Farhodu Majnundeklar ul vodiy aro,
Bo'lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz .

Navoiy "Istangiz " radifli g'azalida "baloda" , "fanoda", "aroda", "qaroda", "mubtaloda", "vafoda" kabi qofilarni keltiradi. Jamol Kamol taxmisida ham "duodin", "fanodin", "balodin" "arodin", "mojarodin", "qarodin " kabi shakdagi so'zlar asosida qofiyalar marjonini tizilgan. Bu esa ijodkor mahoratidan darak beradi.

Mustaqillik davri she'riyatida nafaqat buyuk ajdodlar g'azaliga tazmin bog'lash, balki o'sha davrda ijod qilgan zamondoshlar g'azallariga ham tazmin bog'lash keng tarqalgan.Xususan , serqirra ijodkorlardan biri Farid Usmon, Erkin Vohidov, Jamol Kamol g'azallariga muxammas bog'lagan.

Bahor otlig' fasl borliq aro lufu karam etmish,
Qilib kunduzni notinch, kechani dam osuda dam etmish.
Bahordin boshqa me'zonlar bu xil san'atni kam etmish,
Quyoshdan rang berib yer-u samoni muhtasham etmish.

Shoir g'azal mazmuniga mos kela oladigan tasviriy vositalardan foydalanishga harakat qilgan. Ushbu muxammasda quyoshni o'ziga zeb-u hasham etgan, giyohni muxtaram etgan, osmon oynasini artib, falakni tiniq aylagan bahor tasviri mohirona yoritilgan.





Istiqlol davrida tab'i xud muxammaslar ya'ni shoirning o'z tab'i asosida yaratilgan ijod na'munalar keng tarqalgan .Bunday shakldagi muxammaslar Jamol Kamol, Samandar Vohidov ijodida salmoqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent: O'zbekiston, 2002
- 2.Quronov D.,Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati –Toshkent :Akademnashr , 2010.
- 3.Adashboyev T. ,Musurmon R. Istiqlol ilhomlari. –Toshkent,: Adabiyot va san'at nashryoti. 2001.
4. Samandar Vohidov Buxoriylar bo'stoni. –Toshkent,: Yozuvchi.1998.
- 5.Jamol Kamol Bosh ustina, bosh ustina -Toshkent,: Sharq . 2016
6. Farid Usmon Jon qushi –Toshkent , Yangi asr avlodi. 2005.

